

SHAXS, DAVLAT VA JAMIYATNING O’ZARO MUNOSABATLARIDA AHOLINING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

Mamasharifova Sevinch Azizovna

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyat akademik litseyi 1-bosqich talabasi
sevinchmamasharifova1706@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o’rni qanchalik muhim darajada ekanligi va ularni yuksaltirish asoslari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: farmon, davlat, jamiyat, yoshlar, huquqiy ong, fuqaro, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquq normalari.

Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi farmonga imzo chekildi.

Farmonda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ishlar tizimli va uzbek olib borilishi yo‘lga qo‘yilmaganligi ta’kidlanadi. Aholining, birinchi navbatda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar farmonda belgilab berilgan. Jumladan,

-jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish;

-maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish;

-yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini bolaligidan boshlab singdirish;

-mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzbek tashkil etilishi ham farmonda belgilab qo‘yilgan. Farmonga binoan: Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi va shu Konsepsiyanı 2019- yilda samarali amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ham tasdiqlangan Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofi qlashtiruvchi davlat organi etib O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilangan.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat o’zi nima?

Huquqiy ong jamiyat a’zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo’ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, his-siyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari majmuidir. Shu nuqtayi nazardan huquqiy ongning tabiatini va mohiyatiga yondashiladigan bo’lsa, uning maz-munida mustaqillik yillarida jamiyatda qaror topayotgan demokratik huquqiy qadriyatlar va tamoyillar, huquqiy tizimdagisi islohotlar va

modernizatsiyalash jarayonlari xususidagi fuqarolarning qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari majmui aks etadi.

Huquqiy madaniyat- bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiyligi madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Shu bois huquqiy madaniyat deganda jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma’naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo’lylik va mamlakatda huquqiy-tarti-bot muhitini o’rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati deganda fuqaroning o‘z haq-huquqla rini huquqiy ongiga tayangan holda o‘zgalar manfaatiga zid kelmaydigan tarz da amalga oshirishi tushuniladi. O‘z huquqiy madaniyatini shakllantirish uchun shaxs:

- o‘z huquqiy bilimlarini muttasil oshirib borishi;
- amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tanish bo‘lishi;
- huquqiy faoliyatda ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelgan ijtimoiy qoida larni ham e’tiborga ola bilishi;
- hokimiyat organlarining funksiyalari va vazifalarini bilishi va ular bilan o‘zaro munosabatlarga kirisha olishi;
- huquq-tartibot sohasining jamiyatdagi o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishi va ularning vazifalarini to‘g‘ri anglashi zarurdir.

Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o’zgarishida muhim vosita hisoblanadi. Huquqiy tarbiya huquqiy bilimlarni yoyish, to‘g‘ri xulqning muhim-ligi va qimmati, ularni qabul qilish va keyinchalik o’zlashtirib olish maqsadida shaxs va jamiyat hayotidagi qonuniylik va boshqa huquqiy holatlardan iborat.

Huquqiy tarbiya- bu huquqiy tajriba almashish bo‘yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo’naltirilgan faoliyati: huquq normalariga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta’min-lovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish, yo‘l-yo‘riqlarni shakllantirish maqsadida shaxs ongi va xulq-atvoriga doimiy ta’sir o’tkazib borishdir.

Ushbu qoidalarni har bir inson bilishi va ularga rioya etishi lozim. Ze’ro jamiyatda kishilar qanchalik yuqori huquqiy madaniyatli bo’lsa, huquq normalarini bilsa, qonunlarni, yurdik adabiyotlarni o’qib ularga amal qilsa huquq buzulishi ham shunchalik kam bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma- bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg’usini rivojlanishiga olib keldi. Jamiyatda o‘z haq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga og’ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi PF-5618-son Farmoni.
2. Odilqoriyev.X.T. “Davlat va huquq nazariyasi”darslik. T. “Adolat” 2018, 528-b.
3. O. KARIMOVA, N. ISMATOVA, SH. SARIQOV, O. AMANOVA. “O’zbekiston davlati va huquqi asoslari”. "Huquq va Jamiyat" nashriyoti” T-2019. 192-b.
4. Sh.A.Saydullayev. “Davlat va huquq nazariyasi”darslik. T. “Yuridik adabiyotlar publish”2024.247-b.
5. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b
6. Lex.uz